

## BADIIY IFODADA MUKARRARNING O'RNI

*Norsafarova Nilufar Boybo'ri qizi*  
*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*  
*O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

### **Annotatsiya:**

Mazkur maqolada badiiy san'at lar, ularning adabiyotda tutgan o'rni va ahamiyati, ifodaning badiiyligini ta'minlashdagi funktsiyasi hamda takroriy so'zlarga asoslangan mukarrar she'riy san'atining boshqa she'riy san'atlardan farqi haqida so'z yuritiladi. Mukarrar she'riy san'atining badiiy ifodadagi o'rni yetuk adabiyot vakillarining ijodi orqali yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** badiiy san'at, mukarrar, takrir, takroriy so'zlar, badiiylilik, ifoda, she'r, ma'no, g'oya, xoslik.

## THE ROLE OF CONTINUITY IN ARTISTIC EXPRESSION

*Norsafarova is the daughter of Nilufar Boybori*  
*Shahrisabz State Pedagogical Institute, Uzbek language and literature, \*  
*1st stage student*

**Abstract:** This article talks about artistic arts, their role and importance in literature, their function in providing artistic expression, and the difference between repetitive poetic art based on repeated words and other poetic arts. The role of the poetic art of Mukarrar in artistic expression is highlighted through the work of mature literary representatives.

**Key words:** art, repetition, repetition, repeated words, artistry, expression, poetry, meaning, idea, characteristic.

## РОЛЬ НЕПРЕРЫВНОСТИ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ВЫРАЖЕНИИ

*Норсафарова — дочь Нилуфар Бойбори.*  
*Шахрисабзский государственный педагогический институт, узбекский*  
*язык и литература, 1 ступень*

**Абстрактный:** В этой статье говорится о художественных искусствах, их роли и значении в литературе, их функции в обеспечении художественного выражения, а также о разнице между повторяющимся поэтическим искусством, основанным на повторяющихся словах, и другими поэтическими искусствами. Роль поэтического искусства Мукаррара в художественном выражении выделена через творчество зрелых литературных представителей.

**Ключевые слова:** искусство, повторение, повторение, повторяющиеся слова, художественность, экспрессия, поэзия, смысл, идея, характеристика.

### Kirish

Badiiy ifodada mukarrarning o'rni haqida so'z yuritar ekanmiz, avvalo, "Mukarrar nima?", "Badiiy ifoda nima?" kabi savollarga javob izlaymiz. Mukarrar bu so'zlarning takroriga asoslanuvchi she'riy san'atlardan biri hisoblanadi.

Ifoda hamda badiiy ifoda. Ifodani ma'lumotlarning yozuvdagi yoki og'zaki nutqdagi ko'rinishi desak, badiiy ifodani ifodaning insonning ichki his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatadigan shakli deyishimiz mumkin.

Xo'sh, badiiy ifoda bilan mukarrarning qanday aloqasi bor? Ular o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud? Birinchi navbatda, mukarrarni she'riy misralardan qanday topilishiga e'tibor qaratsak, misradagi har qanday takroriy so'zlar mukarrar san'atini vujudga keltirishining guvohiga aylanamiz.

So'zlarning takroriga asoslangan she'riy san'atlarga misol qilib takrir, mukarrar, anafora, tasir, tasbe, assonans, tardi aks, epifora kabi she'riy san'atlarni keltirishimiz mumkin.

Mukarrar shaklan takrirga yaqin turadi. Biroq o'ziga yarasha farqli jihatlari ham mavjud.

Takrir - arabcha so'zdan olingan bo'lib "takrorlash" degan ma'noni anglatadi hamda misradagi bir so'zning istalgan o'rinda qayta takrorlanib kelish xususiyatini o'zida mujassamlashtiradi. Masalan,

Ikov tiktilar ko'zni qo'rg'on SARI,

Ne qo'rg'on SARI, sun'i Yazdon SARI.<sup>1</sup>

Ushbu baytda "sari" so'zi takrir san'atini yuzaga keltirgan.

Tardi aks. Tardi aks ham so'z takroriga bag'ishlangan lafziy san'atlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham so'zlar takroriga asoslangan - tasdir, tasbe, ishtiyoqqa yaqin turadi. Bu yaqinlik tardi aksda ham so'zlarning takrorlanishidir. Ammo shunga qaramay bu san'at ulardan tubdan farq qiladi. "Tard" ning ma'nosi "qaytarib berish", "qochirish", "uzoqlashtirish" demakdir. Aks esa "zid", "teskari", "chappa" ma'nolarini bildiradi.

Tardi aksda takrorlangan so'zlarning o'rni qat'iy emas, unda takrorlanayotgan so'zlarning miqdori ikki yoki undan ortiq bo'lib, ular o'rinlarini almashtirgan holda qo'llangan bo'lishlari shartdir:

Menga dushvor erur sensiz tirilmoq,

Senga men bo'lmasam, ey jon, ne g'amdur.<sup>2</sup>

Tasbe - birinchi misra oxiridagi so'zning keyingi misra boshida qo'llanilishi. Bu san'at kitobxon diqqatini tortadi va shu so'z ustida o'ylashga majbur qiluvchi markazlashtiruvchi linza vazifasini bajaradi :

Yashab fikr qilguvchi inson

Insonlarga nafratsiz bo'lmas.<sup>3</sup>

Tasdir - badiiy san'atning eng ko'p tarqalgan, so'zlar takroriga asoslangan turi. Bu san'atning mohiyati shunday: baytni boshlagan so'z uning oxirida ham takrorlanadi. Baytning birinchi misrasidagi birinchi rukn sadr, keyingi misraning oxirgi rukni esa ajuz deb yuritiladi. Jumladan,

SICHQON qarshisida mushuk arslonu,

Arslon qarshisida misoli SICHQON.<sup>4</sup>

Endi asosiy diqqatimizni mukarrar she'riy san'ati, uning boshqa san'atlardan ajralib turuvchi jihati yoxud boshqa san'atlarga yaqinlik munosabatlari, shuningdek, ushbu san'atning badiiy ifodadagi o'rniga qaratamiz.

Ma'lumki, mukarrar baytda takroriy so'zlarni qo'llash san'ati sanaladi. Muallif baytda ifodalayotgan fikriga e'tiborni qaratish, uni kitobxoniga to'laqonli yetkazib berish uchun ko'prik vazifasini bajaruvchi mukarrar she'riy san'atini shakllantiradi. Bu bilan o'quvchi, ya'ni kitobxonning ichki kechinmalari, his - tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatadi.

Mukarrar she'riy san'atini qo'llash orqali aytilgan fikr qayta ta'kidlanadi, unga urg'u beriladi. Mukarrar she'riy san'ati baytning ta'sirchanligini kuchaytiradi. Buni quyidagi bir nechta misollar orqali ko'rib chiqamiz:

1. Guftamash gul-gul baromad rangi ruxsorat zi mul,  
G'unchai u dar tabassum shudki, az gulho chi gul.[5]

2. Tafakkur va tildagi ne-ne turli so'zlarni,  
Jami eldagi buda keltirgandir, ko'r.[6]

3. Ishq yelin yetkurubon tund-u tez,  
Aql alochug'in etib rez-rez. [7]

4. Ko'kda mening boshimda turib  
Go'yo yuragimday qalqdi u.  
Ko'zimdagi yoshimni ko'rib  
U ham to'kdi yoshimni duv-duv. [8]

5. Karvonlarni ko'rgim keladi saf-saf,  
Bu karvonboshilar qilichin sadaf. [9]

Ushbu baytda "saf-saf" so'zi mukarrar she'riy san'atini vujudga keltirarkan, ushbu so'zga diqqat qaratamiz. "Saf" bittagina safni emas, aksincha, ikki yoki undan ortiq saflarni ifodalaydi va buni qo'llash orqali yozuvchi kitobxonning butun diqqatini jalb etishga, ifodaning badiiyligini yuksaltirishga, fikrning ta'sirchanligini oshirishga erishadi.

6. O'z erkimga qo'ysalar, ul kun  
Yayrab - yayrab misli sho'x qulun  
Chopardim o'rmon tomon! [10]

Demak, barcha keltirilgan misralardagi takroriy so'zlar mukarrar she'riy san'atini vujudga keltirib, kitobxonning diqqatini tortishga, ifodaning badiiyligini oshirishga, kitobxon hissiyotlariga ta'sir qilib, badiiy ifoda ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostoni XXXIX bob.
2. 10-sinf adabiyot darsligi 1-qism. She'riy san'atlardan namunalar "O'zME" Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent - 2017 (179-bet).
3. Aleksandr Sergeyevich Pushkin "Bog'chasaroy fontani" Toshkent O'zbekiston" 2019 (268-bet) XLVI bob.
4. www.ziyouz.com kutubxonasi Sa'diy "Guliston" asari 18-bet.
5. Library.ziyouz.com/ Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" 1-qism.
6. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti Toshkent - 1971.
7. Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent - 2018.
8. Zulfiya "Tong bilan shom aro" saylanma "Sharq" Toshkent - 2006.
9. Muhammad Yusuf "Erka kiyim" she'rlar to'plami Yozyobon-1992.
10. Aleksandr Sergeyevich Pushkin "Bog'chasaroy fontani" Toshkent "O'zbekiston" - 2019 (173-bet).